



## Boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Tarbiya" fanini o'qitishning zarurati.

Usmonova Nargiza Raximjonovna

Qo'qon universiteti

"Ta'lif " kafedrasi o'qituvchisi

### ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Tarbiya" fanini o'qitishning zarurati haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>st</sup> April 2023

Revised: 20<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 20<sup>th</sup> June 2023

**K E Y W O R D S:** kichik maktab yoshi, o'qitish, psixika, o'quv faoliyati, ta'lif mazmuni, bilim, ko'nikma, malaka,

Har qanday jamiyatning kelajagi sog'lom fikrli, keng dunyoqarashli, ilmga chanqoq kreativ fikrlaydagan intellektual salohiyati yuksak darajada taraqqiy etgan yoshlarga har tomonlama bog'liqidir. Barkamol sog'lom fikrli avlodgina Vatan va yurt oldidagi umumjamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan vazifalarni bajarishga qodir bo'lib, o'z xalqining tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Shu nuqtai nazardan har bir insonning kamol topishida unga berilayotgan ta'lif-tarbiyaning o'rni beqiyos sanaladi. Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-teknika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'ymoqda. O'zbekiston Respublikasida "Tarbiya" fani konsepsiysi mazkur fanni davlatning ta'lif-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishiga qaratilgan ustuvor vazifalar , asosiy maqsad va yo'naliishlarni belgilab beradi.<sup>1</sup> Ta'lif-tarbiyaning ilk poydevori albatta ta'lif tizimining dastlabki bo'g'ini maktabgacha ta'lif tashkilotida qo'yila boshlaydi. Undan so'ng albatta umumiyl o'rta ta'lif maktab davri boshlanadi. Shularni inobatga olgan holda Prezidentning tegishli qarori bilan Umumta'lif maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish yo'lga qo'yildi. Tarbiya fanini o'qitishni boshlang'ich ta'lif yoshidagi o'quvchilarni o'quv rejasiga kiritish zarurat sifatida rivojlantirildi. Shaxsning shakllanish bosqichida dastlabki bilimlarni egallaydigan davr bu kichik maktab yoshi sanaladi. Kichik maktab yoshdagagi o'quvchilarning 7-8 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'lib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilari hisoblanadi.Bu yillarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Binobarin, ularning psixikasida ham sezilarli darajada o'zgarishlar bo'ladi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi.Bu davrda bola, fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi.Bu davrda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi talablar va shartlarni qabul qiladilar, shuningdek ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar.Maktabga qabul qilingan

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-4885018>

bolalarning hayoti birmuncha qiyinlashib boradi. Birinchi kunlardan boshlab o'quvchi bir qancha qiyinchiliklarni boshdan kechiradi: yangi maktab muhitiga moslashishi; yangi kun tartibini ishlab chiqishi; yangi tengdoshlari jamoasiga kirishishi;xulq-atvorida ko'pgina cheklov va ustanovkalarni qabul qilish;o'qituvchi bilan munosabat o'rnatish,oilaviy vaziyatlarda yangi munosabatlarning uyg'unligini ta'minlash.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi.Bolaning mактабда borishi, uning psixologik rivojlanishi va xulq-atvoridagi o'rni nihoyatda katta. Bu davrda axloqiy xatti-harakat qoidalari o'zlashtiriladi, shaxsning ijtimoiy yo'nalihi tarkib topa boshlaydi.O'qish faoliyati kichik mакtab davridagi bolalar psixikasi rivojidagi o'zgarishlarni belgilab beradi.Maktabga birinchi bor kelgan bola o'z faoliyatining tub mohiyati va vazifasini to'la tushunib yetmaydi , balki hamma maktabga borishi kerak, deb biladi.Kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib, tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi.Oradan ma'lum vaqt o'tgach, shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan mакtabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va bola o'qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi.Shunda bola aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi, o'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va shu faoliyatga tayyorlashi kerak.

O'qish faoliyati davomida tarkib topgan xususiyatlar bolaning kelgusi rivoji uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.Maktab ta'limi o'quvchining tur mush tarzini, ijtimoiy mavqeyini , sinf jamoasini va oila muhitidagi o'rnni o'zgartiradi.Uning vazifasi o'qishdan bilim olish , ko'nikma va malakalarni egallash , o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatları murakkab bo'lган ko'п darajali motivlar tizimi bilan boshqariladi.Boshlang'ich sinf o'quvchiları ta'lim jarayonida ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi, o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirilishi bilan yuzaga keladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayli istak va ishtyoqni shakllantiradi va o'z kuchiga ishonch hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy komponentlari:o'quv masalalari, o'quv vazifalari , o'quv harakatlari, nazorat etish va baholash bilan tanishtirishdan boshlanadi.Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo'lган sharoitda amalga oshirilishi juda muhim.O'quvchining o'quv faoliyatini o'zlashtirishi o'quv masalalari tizimini yechish jarayonida amalga oshiriladi. O'qishning boshida kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar mustaqil ravishda o'quv masalalarini qo'yish va yechishni bilmaydilar.Bu vazifani boshida o'qituvchi bajaradi. Asta sekinlik bilan o'quvchilarining o'zlari ham o'quv masalalarini qo'yish va yechish uchun zarur bo'lган ko'nikma va malakalarni egallay boshlaydilar. O'quvchilarini o'quv faoliyatini o'zlashtirib borishi natijasida sekin astalik bilan ilmiy dunyoqarashlari kengaya boshlaydi bu esa dastur bo'yicha boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilar o'zlashtirilishi kerak bo'lган fanlarni o'qitishning zarutatini yaqqol isboti sanaladi

Yuqiridagi fikrlarning isboti o'laroq O'zbekiston ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Tarbiya" fani asoslarini zamonaviy talablar asosida o'qitish va o'rganish zarurati quyidagicha:

- tarbiya fani asoslarini chuqur bilishiligi;
- fanni o'qitishning ilg'or va zamonaviy pedagogik, innovatsion hamda axborot texnologiyalarini egallashi;
- tarbiya masalasiga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganib borish;
- inson va jamiyat hayotida tarbiyaning tutgan o'rnini to'liq idrok etish;
- fan vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash metodlari va texnologiyalarini bilish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona-vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash;
- kichik paytidan shakllantirib borilayotgan axloqiy tarbiyani rivojlantirish hamda bu orqali o'quvchilarini axloqiy ongini, axloqiy xulq-atvorini hamda axloqiy motivatsiyasini rivojlantirish;
- uzluksiz ta'lim tizimiga "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirish;
- bola huuqlarini himoya qilish va ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

- o'quvchilar tarbiyasida har doim oilaning maktab bilan o'zaro samarali hamkorligini mustahkamlash orqali ota-onalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo'lgan hurmat e'tiborni umuminsoniy tamoyildan kelib chiqib shakllantirishni qo'llab-quvvatlash;

-har bir yoshdan hamda har bir bosqichdan boshlab o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;

-ma'naviy-axloqiy jihatdan muammosi bor yoki tarbiyasida bo'shliqlar mavjud bo'lgan yoki notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil bo'lgan yoki profilaktik ro'yxatda turadigan yoshlar bilan individual (yakka) tarzda ishlash tizimini takomillashtirish;

-dunyo dinlarining ko'p asrlar davomida avloddan kelayotgan ma'naviy qadriyat ekanini tushuntirish bilan bir qatorda, hech bir dunyo dinida(islom dini,xtistianlik, buddizm) zo'ravonlik, terrorizm va ekstremizm g'oyalari targ'ib etilmasligini kichik maktab yoshidan boshlab o'quvchilarga tushuntirish;

- shaxs faoliyatida (o'yin, o'qish, mehnat ) ijtimoiy-ma'rifiy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

-o'quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash;

-faol fuqarolik pozitsiyalarini (jamiyatdagi o'rni) mustahkamlash;

-mas'uliyat hissi majburiyat va javobgarlik huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, teran ma'rifatlilik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirish vazifalarini belgilash;

-Tarbiya fani o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qildirish orqali;

- Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida uchrayotgan salbiy holatlarning asl sabablarini aniqlash va oldini olish, huquqbazarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratilgan profilaktik ishlarni ham natijadorligini oshirishga zamin yaratish orqali:

- o'quvchilarda milliy g'urur va milliy iftixor, moddiy va ma'naviy merosni asrab-avaylashga qaratilgan insonparvarlik tuyg'usini tarkib toptirish;

-davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan bilim va hayotiy ko'nikmalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish;

umumi o'rta ta'lim tizimida "Tarbiya" faniga zarur hajmdagi soatlar ajratilganligi orqali, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish;

tarbiya fanini o'qitish metodologiyasini takomillashtirish asosida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish orqali.

Prezidentimizning tegishli qarori bilan o'rta umumta'lim maktablarida 1-sinfdan toki 11-sinfgacha "Tarbiya" fanini o'qitishning zarurati shundaki o'quvchilarni kichik yoshdan boshlab o'zbekona milliy ruhda tarbiyalash, ona-vatan oldidagi yuksak burchni anglash, o'quvchilar ongiga gumanizm go'yalarini singdirish, ilmiy dunyoqarash asoslarini shallantirish, hayotda mustahkam o'z o'ringa ega bo'lishlari bundan tashqari boshlang'ich sinflarda istisno tariqasida estetik aqliy hamda jismoni rivojlanishni nazarda tutuvchi tarbiyaviy tadbirlar maqsadli o'tkaziladi shuningdek bayramlar va tantanalar vositasida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining ijtimoiy tarbiyasi amalga oshiriladi buni esa ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari bo'lmish boshlang'ich ta'lim pedagoglari, hamda "Tarbiya" fani o'qituvchilarining samarali mehnatlari orqali amalga oshiriladi. Zeroiki xalqimiz orasida ajoyib bir ibora bor "Yoshlikda olingan ilm toshga bitilgan naqsh kabidur".

## Foydalilanigan adabiyotlar

1. B.X.Xodjayev "Umumi pedagogika nazariyasi va amaliyoti" " Sano-standart " nashriyoti Toshkent 2017-yil 135-bet.
2. A.P.Tryapitsinoy. "Pedagogika" Piter. Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy-Novgorod, Voronej, Samara, Kiyev, Xarkov, Minsk. 2014-g.
3. A.G.Gogobiredze, O.B.Solnseva. "Doshkolnaya Pedagogika" Piter, Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy-Novgorod, Voronej, Samara, Kiyev, Xarkov, Minsk. 2016-g.

4. A.Musurmonova. X.Ibragimov, O.Jamoldinova, K.Risqulova, S.Yo'ldosheva , A.Jumayev, F.Babashev,P.Isamova,S.Sharipova, G.Salohiddinova, K.Todjiboyeva.Umumiyyat pedagogika.Toshkent "O'zkitobsavdo nashriyoti" 2020-yil. 131-bet
5. Z.Nishonova . Rivojlanish va ta'lim psixologiyasi.Darslik. Toshkent.2019- yil.
6. M.X.Xolnazarova, M.Q.Muxliboyev. Yosh va Pedagogik psixologiya.Toshkent 2014-yil
7. <https://lex.uz/ru/docs/-4885018>